

KEKSA DENGIZCHI VA QAYIQ

Dengiz qirg'og'ida bir shaharcha bor ekan. Bu shaharchada kichkina bir qayiq yashar ekan. U anchadan beri dengizga chiqmagan ekan. Bechora qayiqning eshkaklari qarovsizlikdan yo'qolib ketgan, qirg'oqqa borib urilaverganidan rangi ham o'chib ketgan edi. U har kuni dengizga g'amgin tikilib:

— Oh, qani endi dengizga chiqa olganimda edi.... Hatto, qachondan beri shu yerda bog'lanib turganimni ham unutdim,— der edi.

Bir kuni tongda qayiq uyqudan uyg'onibdi. O'ziga qarab:

— Menga nima bo'ldi o'zi?— deb yig'lay boshlabdi.
— Juda baxtsizman. Hech kim meni dengizga olib chiqmaydi. Bir marta bo'lsa ham dengizda suzishni, to'lqinlarga urilishni qanchalar istayman.

Qayiq shularni o'ylab turganida Rajab kapitan pristan zinasidan chiqayotgan edi. U odam oqsochli, uzun bo'yli, keksa odam edi. U butun umrini dengizda o'tkazgan, ammo hozir na qadrdon dengizchi do'stlari, na chiroyli kemalari bor...

Rajab kapitan ancha vaqt qirg'oqda turibdi va o'tgan kunlarini eslabdi. To'lqinlarning ovozigiga va chayka qushlarning ovozigiga quloq solibdi. Keyin ko'zi pristanning bir burchagidagi qayiq'larga tushibdi. Bu paytda kichkina qayiq g'amgin ahvolda: "Agar shu dengizchi bilan birga dengizga chiqqanimda mendan baxtlisi bo'lmasdi," deb o'ylabdi.

Rajab kapitan kichkina qayiqqa yaqinlashibdi va unga asta engashib:

— Ey, g'amgin qayiq! Men qayiq'larning do'stiman. Umrim ular bilan o'tdi,—debdi.

Keyin qayiqni mahkam tutib:

— Seni shunday chiroyli qilib ta'mirlab, bo'yayki...— debdi. — Ichingni va siringni ko'kka bo'yayman. Nima deysan?

Qayiq qirg'oqqa urilayotgan to'lqinlarga qarab:

— Yashasin! Men ham boshqa qayiqlar kabi chiroyli bo'laman,— deb baqiribdi.

Rajab kapitan kulib:

— Keyin birga dengizga chiqamiz,— debdi.

Qayiq sevinganidan nima deyishini bilolmay qolibdi.

Kapitan ketibdi va birozdan keyin bo'yoq idish va boshqa kerakli asboblari bilan qaytib kelibdi. Avval bolg'a va mixlar bilan qayiqni ta'mirlabdi. Keyin uni bo'yay boshlabdi. U to quyosh botguncha ishlabdi. Oqshomga yaqin qirg'oqda yorqin ko'k rangli qayiq turardi.

Ertesi kuni Rajab kapitan yana qirg'oqqa kelibdi. ✓

– Tayyormisan? Dengizga chiqamiz, – debdi.

Keyin arqonni yechibdi va qayiqni suvga tushiribdi. O'zi ichiga o'tiribdi. Endi ular ikkalasi ham dengizda tebranib ilgarilab ketishibdi.

Rajab kapitan kulib:

– Dengizda suzish qanchalar hayajonli! – deb baqiribdi.

Chiroyli qayiq to'lqinlar bilan olishar, Rajab kapitanning yuziga ham suv sachrardi.

Qayiq xursand bo'lib:

– Ha, to'g'ri aytasan, – debdi.

QALDIRG'UCH VA QUYON

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Yaqin o'tgan kunlarda faqat bir qanoti bor Chitir ismli qaldirg'och bolasi bo'lgan ekan. U boshqa qaldirg'ochlar kabi ucha olmas ekan.

Bir kuni qaldirg'ochlar bir-biriga shunday deyishibdi:

— Havo borgan sari sovib bormoqda. Kunlar ham qisqarmoqda. Tog' va dengizlar ustidan oshib, issiq yurtlarga ketishimiz kerak.

Chitir bu gaplarni eshitib juda xafa bo'libdi. Chunki qaldirg'ochlar ko'chayotganlarida juda balanddan uchishardi. Chitir esa faqat bir necha metrga ko'tarila olar, keyin yerga tushishga majbur bo'lar ekan. Ular bilan birga bu safarga chiqishning imkoni yo'q ekan.

Qaldirg'ochlarning ham issiq yurtlarga ketishdan boshqa choralari yo'q edi.

Bir kuni tongda qaldirg'ochlar Chitir bilan xayrlashib, uzoq o'lkalarga uchib ketishibdi. Chitir esa: "Uzoq qishni yolg'iz o'zim qanday o'tkazaman?" deb o'ygacha cho'mib qolaveribdi. O'ziga-o'zi: "Borib o'zimga joy topishim kerak. Yo'qsa, ochlik va sovuqdan

o'lib ketaman," deb yo'lga tushibdi.

Yo'lda bir nechta olmaxonlarni uchratibdi. Ularning oldiga borib:

– Men bir qanotli qaldirg'ochman. Shuning uchun boshqa qaldirg'ochlar bilan uchib ketolmadim. Qishni sizlar bilan birga o'tkazsam bo'ladimi?– debdi.

– Bizga yong'oq chaqib bera olasanmi?– deb so'rashibdi olmaxonlar.

– Buni qilolmayman. Bir qanotli qaldirg'och uchun qiyin ish bu, – deb javob beribdi.

– Unday bo'lsa, biz bilan qololmaysan, – deyishibdi olmaxonlar.

Chitir g'amga botib o'z yo'lga ravona bo'libdi. Birdan daraxt tanasiga qurilgan kichkina eshikka ko'zi tushibdi. Borib eshikni taqillatibdi.

– Salom, men bir qanotli qaldirg'ochman. Hamma qaldirg'ochlar issiq o'lkalarga uchib ketishdi. Qishni sizlarnikida o'tkazsam maylimi? – deb so'rabdi Chitir.

– Demak, sen bir qanotli qaldirg'ochsan, shundaymi? – debdi.

– Ha, shunaqa, – deb javob beribdi u.

– Qo'linga bir qara! Men ham senga o'xshayman. Sening bir qanoting yo'q, mening esa bir qo'lim. Dunyoga kelganimda faqat bitta qo'lim bor edi. Ammo rizqimni o'zim topdim. Uyimni o'zim qurdim. Hatto, ba'zan boshqalarga yordam berishga harakat ham qildim, – debdi quyon.

Chitir uyalib:

– Qanaqasiga? Bir qanot bilan nima qilish mumkin? – debdi.

– Bir qo‘l bilan qiladigan hamma ishlarni sen ham bir qanoting bilan qila olasan, – deb sakrabdi quyon va Chitirni ichkariga taklif qilibdi.

Chitir o‘sha yili qishni quyonnikida o‘tkazibdi. Quyon unga ko‘p narsalarni o‘rgatibdi. Ular inoq do‘st bo‘lishibdi.

Chitir o‘zining ahvolidan mamnun edi. Qishda quyonnikida qolar, yozda vaqtini qaldirg‘ochlar bilan o‘tkazardi. U ham o‘zi uchun yegulik topar, boshqalarga ham yordam berardi.

CHECHAK VA QO'SHOQ

Qo'shoq juda aqlli va tarbiyali eshak ekan. Salim amaki har kuni u bilan birga dalaga borar, o't o'rib eshagiga ortib, uyga olib kelar ekan. Salim amakining xotini Nazira aya o'tlarni eshakdan tushirib olib, sigir va qo'ylarga berar ekan.

Bir kuni Salim amaki uyga har doimgidan barvaqt qaytibdi. Bu vaqtda Nazira aya o't bog'lamlarini molxonaga olib kirayotgan edi. Aya amakini ko'rishi bilan:

– Nega bir necha kundan beri o'tni kam olib kelyapsiz?— deb so'rabdi.

Salim amaki hayron bo'lib:

– Men har kuni olti bog'lam o't olib kelyapman. Hatto, kecha yetti bog'lam olib keldim,— debdi.

– Voy, unda o'tning qolgani qani, tushunmadim,— debdi Nazira aya.

Salim amaki biroz o'ylagandan keyin:

– Nima demoqchisan? Qo'shoq yaxshi eshak. O'tlarni nima qilishi mumkin? Ertaga uning ortidan tushib, bu ishning tagiga yetmasam bo'lmaydi, shekilli, — debdi.

Ertasi kuni ertalab Salim amaki eshagi bilan odatdagidek birga dalaga ketishibdi. Amaki darhol ishga

kirishibdi. O't bog'lamlarini eshakka ortib, uni uyga jo'natibdi. O'zi esa uni kuzatmoqchi bo'libdi.

Qo'shoq ma'lum vaqt har doimgi yo'lidan yuribdi. Ammo yo'l ikkiga bo'linadigan joyga kelganda uy tomonga emas, boshqa tarafga burilibdi.

Salim amaki qiziqish bilan eshagini kuzatib kelardi. Eshak ancha yurgach, balandlikdan oshib o'tibdi. So'ng bir xarobaga qarab yuribdi. Bu xarobaning burchagida nimjon eshak yerga yotib olgan edi. Qo'shoq yerga engashibdi. Bechora eshak og'zi bilan Qo'shoqning ustidan bir bog'lam o'tni pastga tushiribdi.

Mana shu paytda Salim amaki Qo'shoqning yoniga kelibdi.

— Demak, har kuni bir bog'lam o'tni shu bechora eshakka berayapsan, shundaymi? — deb Qo'shoqni silabdi.

Qo'shoq avval qo'rqibdi, lekin xo'jayinning jahli chiqmaganini bilibdi.

Salim amaki yerda yotgan eshakning yoniga o'tiribdi. Unga diqqat bilan qarab, uning oyog'i singanini bilib qolibdi. So'ng Qo'shoqqa qarab:

— Sen muruvvatli ekansan. Men borib arava olib kelaman. Bu eshakni uyga olib borib, davolash choralari ko'raylik, — debdi.

Ular shunday qilishibdi. Salim amaki oyoqlari tuzalgunga qadar eshakni yaxshi parvarishlabdi. Eshak

ham sehirib, o'ziga kelib olibdi. Nazira aya va Salim
amaki unga Chechak deb ism qo'yishibdi.

Yana sizga bir xushxabarni aytay. Chechak va Qo'shoq
tur mush qurishibdi. Bir-biridan yaxshi farzandlar
ko'rishibdi.

OXIR DUNYO BO'LYAPTI

Katta o'rmonda kichkina quyon yashar ekan. U har eshitilgan tovushga diqqat bilan quloq solar, falokat sodir bo'lmayaptimikan deb xavotirlanar ekan. Hatto, kichkina bargning qimirlashini ko'rsa ham quyonchanning yuragi hayajondan dukillab urib ketar ekan.

Bir kuni ertalab quyoncha uyqudan turib, endi esnayotgan ekan. To'satdan eshitilgan qo'rqinchli ovozdan u o'rnidan sakrab turibdi. So'ng shiddat bilan yugura boshlabdi. Uning yugurayotganini ko'rgan jayron qiziqish bilan uning orqasidan yuguribdi:

– Ey! Qayoqqa shoshyapsan? – deb so'rabdi.

– Sen qo'rqinchli ovozni eshitmadingmi? Oxir dunyo bo'lyapti. Men ham bu yerlardan qochib ketyapman, – debdi quyon.

Jayron ham:

– Unda men ham sen bilan ketaman, – deb quyon bilan birga daraxtlar oralab yugura boshlabdi.

Yo'lda ular tulkiga duch kelishibdi. Tulki ularni ko'rib hayrat bilan:

– Ikkalangiz yugurib qayoqqa ketyapsizlar? Sizlarni ko'rganlar oxir dunyo bo'libdi deb o'ylaydi, – debdi.

Xuddi aytgnaningdek bo'ldi. Joningni asrab qolmoqchi bo'lsang, bu yerlan qochib qol, — debdi jayron unga.

Tulki ham ular bilan birga yugura boshlabdi.

Anchadan keyin ularga shoqol bilan qoplon ham qo'shibdi. Hammalari baravar nafasleri tiqilguncha yugurishibdi. Oxirida bahaybat filga duch kelishibdi.

Fil:

— Nima bo'lyapti? Qayoqqa ketyapsizlar? — deb so'rabdi.

Quyong, jayron tulki, shoqol va qoplon — hammalari bir ovozdan:

— Oxir dunyo bo'lyapti. Joningni saqlab qolmoqchi bo'lsang, bu yerdan qochib qol, — deb javob berishibdi.

— Siz oxir dunyo bo'layotganini qayerdan bildingiz? — qiziqib so'rabdi fil.

— Menga shoqol aytdi, — debdi qoplon.

— Menga tulki aytdi, — debdi shoqol.

— Men jayrondan bildim, — debdi tulki.

Jayron esa:

— Buni eng avval quyong bilib qolibdi. Keyin menga aytdi, — debdi.

Ular hammalari quyonga qarab qolishibdi. Fil xartumini quyonga to'g'rilab uzatibdi va:

Sen oxir dunyo bo'lganini qayerdan bilding? — deb so'rabdi.

Quyov hamмага qo‘rquv solgan bu xabar to‘g‘ri ekaniga ishonchi komil emas edi. U boshini egib shivirlabdi:

– Haligi men... Ertalab oldin umuman eshitmagan qo‘rqinchli ovozni eshitdim-da...

Shunda fil xartumini yuqoriga ko‘tarib, baland ovozda na‘ra tortibdi. Uning ovozi butun o‘rmonni tutib ketibdi. So‘ngra:

– Sen eshitgan qo‘rqinchli ovoz shu bo‘lmasin tag‘in? – deb quyondan so‘rabdi.

Quyov hayronu lol bo‘lib:

– Ha, ha, shu ovoz. Ertalab men eshitgan ovoz xuddi shu, – debdi.

– Men bu o‘rmonga yaqinda keldim. Seni qo‘rqitgan ovoz mening o‘rmondagi hamma hayvonlarga salom berishim edi, – debdi.

Filning bu gapidan so‘ng qoplon shoqolga, shoqol tulkiga, tulki jayronga, jayron esa quyonga qarabdi. Voqeaning aslini o‘rgangan filning kulgisi kelibdi. Bechora quyov esa uyatdan qizarib ketibdi. Buni ko‘rgan fil kulishdan o‘zini tiyishga harakat qilib, quyonga o‘girilibdi:

– Sizlarni qo‘rqitganim uchun uzr, ammo hammangiz bilan tanishganimdan xursandman, – debdi.

Ular hammalari sodir bo‘lgan bu qiziq voqyeaga kulib yuborishibdi va bir ovozdan filga:

– O‘rmonimizga xush kelibsan! – deyishibdi.

UZUNQULOQ VA KICHIK BEHRUZ

Katta shahar yonida kichkina bir qishloqcha bor ekan. Bu qishloqda yashaydigan eshaklarning egalari ularni aylantirish uchun har kuni keng maydonga olib chiqishar ekan. Maydonda ularni har kuni bir gala shaharlik bolalar hayajon bilan kutib turishar ekan. Bolalar eshaklarga minish uchun navbat kutib turishar ekan.

Qishloqda Uzunquloq ismli kichkina bir eshak ham bor ekan. U ham har kuni xo'jayini Mahmud bilan birga qirg'oqqa borar ekan. Ammo bolalar uni tambal eshak deb o'ylashar va unga minishni xohlashmas ekan. Aslida Uzunquloq dangasa emas ekan. U kichkina va nimjon bo'lgani uchun qancha urinsa ham boshqa eshaklarga o'xshab yugura olmas edi.

Uzunquloq bolalar u bilan o'ynashni va sayrga chiqmasliklarini ko'rib rosa xafa bo'lar edi. Bir kuni uning qirg'oqda g'amgin turganini ko'rgan Behruz onasi bilan uning oldiga kelibdi.

Onasi:

— Qanday chiroyli eshak ekan! Behruz, qaragin,— debdi.

Behruz eshakka qarab:

Ha, oyijon. Darhaqiqat, chiroyli va yoqimtoy ekan. Buning ustiga boshqa eshaklardan ham kichkina, — debdi.

— Uni bir minib kelishga nima deysan? — deb so‘rabdi onasi.

Behruz qo‘rqib:

— Yo‘q, oyi, yo‘q! — deb javob beribdi.

Nega Behruz unday qildi deysizmi? Chunki u bir necha oy oldin avtohalokatga uchragan va oyog‘i singan edi. Uzoq vaqt kasalxonada yotib davolangan, hali ham yurishda qiynalardi.

Behruzning onasi Uzunquloqning egasiga:

— Bizga juda sekin yuradigan, yuvosh eshak kerak edi. Bu eshak qanaqa o‘zi? — deb so‘rabdi.

— Uzunquloq xuddi siz istagandek eshak, — deb javob beribdi u.

Behruzni eshak ustiga o‘tqizayotganida:

— Bu eshak juda sekin yuradi. Shuning uchun ko‘p bolalar unga minishni xohlashmaydi. O‘ylashimcha, bugun Uzunquloq o‘ziga do‘st topa oldi, — debdi.

Uzunquloq yurib ketibdi. Mayin tuproq ustida sekin-sekin yurish Behruzga yoqibdi. Eshak yurayotganda taqur-tuqur ovoz chiqarar edi. Uzoqdan qushlarning ovozi eshitilardi. Mayin shabada Uzunquloq bilan Behruzning yuzini silab o‘tardi. Bu sayr ularning har ikkisi ham yoqibdi.

Oldindagi boshqa eshaklar dam u tomonga, dam

~~bu tomonga~~ yugurishar edi. Behruz Uzunquloqni silab: ↘

– Anavi eshaklarda sayr qilishni xohlamasdim. Ular yaxshi sayr qila olishmayapti. Menga mana shunaqa ohista yurib tomosha qilish yoqdi. Yaxshiyamki, sen boshqa eshaklarga o‘xshab yugurib ketmas ekansan, – debdi.

Uzunquloq va Behruz katta bir daraxt oldiga borganlaridan keyin atrofni tomosha qilib, zavq bilan orqaga qaytishibdi. Mahmud bolani avaylab eshakdan tushiribdi.

Onasi:

– Qalay? Senga yoqdimi? – deb so‘rabdi.

– Uzunquloq dunyodagi eng yaxshi eshak! U bilan sayr qilish juda yaxshi ekan. Ertaga yana kelib, Uzunquloqqa minsam bo‘ladimi? – deb so‘rabdi Behruz.

– Albatta, – debdi onasi.

Behruz eshakning boshini va burnini silagandan keyin uning qulog‘iga engashib:

– Ertaga kelayotganimda senga shakar olib kelaman. Eshaklar shakarni yaxshi ko‘radi-ku! – deb pichirlabdi.

Uzunquloq boshini silkitibdi va baland ovozda hangrab, bolakayga minnatdorchilik bildiribdi.

QUYOSH NEGA UXLAB QOLDI

Erta tong edi. Quyosh tog‘larning ortidan sekin ko‘tarila boshlabdi. Xo‘roz baland ovozda qichqira boshlabdi: ku-ka-re-ku!

U quyosh tog‘ning orqasidan chiqib kelgunga qadar qichqirishda davom etibdi. Keyin pastga tushibdi va kekkayib boshini baland ko‘taribdi. Tog‘larning orqasidan chiqib kelayotgan quyoshga qarabdi.

Xo‘roz hali yosh, ammo anchagina takabbur edi. O‘sha kuni har doimgidek katak tomiga chiqibdi va:

– Quyoshni uyg‘otadigan yagona hayvon menman. Har kuni tongda u mening ovozim bilan uyg‘onadi va tog‘larning orqasidan chiqib keladi, – deb baqiribdi.

Tovuq va jo‘jalar uni eshitib hayratlanishibdi. Xo‘roz kun sari manmansirab borardi. U bir kuni tovuq va jo‘jalarning oldiga kelib:

– Quyoshga qarang! Menga kulib qarayapti, rahmat aytishni xohlayapti, – debdi.

Boshqa kuni esa xo‘roz sigir va buzoqning oldiga kelib, yana shu gaplarni aytibdi. Xo‘roz ularning yonidan ketgach, buzoq onasiga:

— Bu xo'roz juda maqtanchoq ekan. Qarang, gerdayib yurishini, — debdi.

— U hali yosh, hech narsadan xabari yo'q, — deb javob beribdi sigir.

Oradan bir necha kun o'tibdi. O'sha kuni osmonda qora bulutlar paydo bo'libdi. Havo tund edi.

Xo'roz odatdagidek tongda kun yorishmasdan uyg'onibdi, ammo shu kuni havo yorishmagani uchun uning uyqusi darrov ochilmabdi. Buzoqcha xo'rozning oldiga kelib, uyg'otishga harakat qilibdi.

— Hoy, uyg'on, tong otdi. Quyoshni uyg'otishing kerak, — debdi.

Xo'roz o'rnidan sakrab turibdi. U hali ham uyqusirardi. So'ng ko'zlarini ham ochmasdan baland ovozda qichqira boshlabdi. Buzoq, tovuq va jo'jalar bir chekkada turib, quyoshning chiqishini kuta boshlashibdi. Shuning bilan biga ko'zlari yarim ochiq, uyqusirab qichqirayotgan xo'rozni kuzatishibdi. Anchadan keyin xo'roz qichqirishdan charchabdi va ko'zlarini katta-katta ochibdi. Nimani ko'ribdi deng? Osmonda quyosh yo'q emish!

Xo'roz juda xafa bo'lib ketibdi. U pastga tushibdi va katakning bir burchagiga o'tirib olibdi. Tovuuq va jo'jalar xo'rozning bu holatiga rosa kulishibdi.

Shovqinni eshitgan sigir katak tomonga yuribdi. U yerda xafa bo'lib o'tirgan xo'rozni ko'rib, muloyim ovozda:

➤ Bu yerda nima qilyapsan? Quyosh har kuni tongda ✓
xo‘rozlar qichqirsa ham, qichqirmasa ham chiqaveradi.
Ba’zi kunlari havo bulut bo‘lgani uchun quyosh
ko‘rinmaydi. Lekin sen baribir har kuni
qichqirib, tong otgani haqida xabar berishing
kerak. Qani. endi tashqariga chiq va bundan keyin
o‘zing uyalib qoladigan gaplarni gapirma, – debdi.

Xo‘roz tashqariga chiqqanida boshqa hayvonlar
kulishdan to‘xtabdi.

Xo‘roz shu kundan boshlab o‘zini katta olmaydigan,
maqtanmaydigan bo‘libdi.

QIZILOY

Kichkina yelim qo'g'irchoq Qiziloy o'yinchoqlar do'konida yashardi. Uning jigarrang ko'zlari, qizil lablari, kalta qo'ng'ir sochlari va chiroyli qirmizi ko'ylagi bor edi.

Qiziloy bir necha oydan beri shu do'konda edi. Har kuni ko'p bolalar bu yerga kelishar, boshqa o'yinchoqlarni tanlab sotib olishardi. Qiziloy ham kimningdir qo'g'irchog'i bo'lishni xohlar, bolalar bilan o'ynashni orzu qilardi. Ammo kunlar o'tar, hech kim Qiziloyni sotib olmasdi. U shunga juda xafa bo'lardi.

Bir kuni do'konga chiroyli, istarasi issiq bir ayol kirib kelibdi. Bu yerdagi o'yinchoqlarni ko'zdan kechirgandan so'ng Qiziloyni ko'rib qolibdi.

— Qanday chiroyli o'yinchoq! — debdi u va sotuvchiga yuzlanibdi. Qiziloyni ko'rsatib:

— Shuni olsam bo'ladimi? — debdi.

Qiziloy bu gapni eshitib, juda xursand bo'lib ketibdi. Uni do'kon peshtaxtasidan olishibdi va rangli qog'ozga o'rashibdi.

"Balki meni qiziga sotib olgandir. Yoki birortasiga hadya qilishga oldimikan?" deb taxmin qilibdi o'zicha

~~Qiziloy~~. U shularni o'ylayotganida ayol pul sanash bilan mashg'ul edi. So'ng uni ko'tarib, do'kondan chiqibdi.

Qiziloy usti o'rog'liq bo'lgani uchun hech narsani ko'rmas edi. Ayol ancha yurgandan keyin nihoyat Qiziloyning atrofiga o'ralgan qog'ozni avaylab ochishibdi.

Qiziloy o'zini katta xonaning ichida ko'ribdi. Xonada bir qancha bolalar karavotlarda yotishardi. Hammalari bir xil rangli kiyim kiyishgandi. Ma'lum bo'lishicha, bu yer kasalxona edi. Qiziloyni sotib olgan ayol ham shu yerda ishlaydigan hamshira ekan. U Qiziloyni qo'lga olib:

– Bolalar, sizlarga chiroyli qo'g'irchoq sotib oldim. U yoqimtoy va tengi yo'q o'yinchoq, – debdi.

Bolalar Qiziloyning atrofiga yig'ilishibdi. Qizaloqlardan biri:

– Voy, buncha chiroyli qo'g'irchoq! – debdi.

Boshqa bir qizcha:

– Ha, juda yoqimtoy ekan! – deb qo'shib qo'yibdi.

Bolalarning hammasi Qiziloyga bir xil munosabatda bo'lishibdi. Qiziloy ham o'ziga-o'zi: "Qanday yaxshi bolalar ekan! Hammasining dardiga shifo bersin," debdi

Qiziloy bolalar bilan tez do'st bo'lib olibdi va ular birga o'ynay boshlashibdi. Qo'g'irchoqning yuzida baxtiyorlik aks etardi.

Anchadan keyin hamshira kelib:

~~Bolalar~~, men endi ketyapman. Sizlar ham yangi do'stingiz bilan vaqtingizni maroqli o'tkazing, — debdi.

Qiziloy xursand edi. U har kuni yangi do'stlar orttirardi. Davolanib bo'lgan bolalar ketib, o'rniga boshqa bolalar kelardi. Qiziloy kasalxonada yashashdan mamnun edi. Chunki bolalar uni yaxshi ko'rishardi. Buning ustiga Qiziloy bolalar davolanib ketishlariga oz bo'lsa ham hissa qo'shayotganiga ishonardi.

IZZATILLA VA QIZIL KAMAZ

Izzatilla to‘rt yoshdagi juda yoqimtoy, quvnoq bola edi. Ularning uyida kichkina bog‘ bor edi. Bolakay vaqtini shu yerda o‘tkazishni yoqtirardi. Ba‘zan onasi bilan gullarga suv quyur, ba‘zan kichkina belkurak bilan yerni yumshatar edi.

Izzatillaning qizil o‘yinchoq kamaz mashinasi bor edi. U har kuni ertalab nonushta qilgach, kamazini olib, hovliga chiqar va soatlab u bilan o‘ynardi. Kamazning orqasiga tuproq va tosh ortib, hovlining har tarafiga olib borardi. Bola bu o‘yinni va mashinasini juda yaxshi ko‘rardi.

Bir kuni u bog‘da kamazi bilan o‘ynayotganida onasi derazadan unga qarab:

– O‘g‘lim, kelaqol ovqatlanamiz, – debdi.

Bolakay kamazni hovlining bir burchagiga uloqtiribdi va ichkariga kiribdi.

Otasi ovqat vaqtida unga:

– Ertaga ertalab barvaqt uyg‘onishimiz kerak, – debdi.

Izzatilla nima uchun barvaqt uyg‘onishlarini o‘ylab turganida otasi quvnoq ohangda qo‘shimcha qilibdi:

– Bir haftaga dam olishga boramiz!

~~Bolakay~~ xursandligidan o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolibdi. U darhol ovqatini yebdi va ertaroq uxlashga yotibdi.

Ertasi kuni ertalab hammalari birga yo‘lga chiqishibdi. Shu hafta bolakay uchun juda maroqli o‘tibdi. U tog‘ yonbag‘ridagi qirda koptok o‘ynabdi, miriqib yuguribdi va kapalaklarni quvlabdi. Dam olishdan qaytganlarida Izzatilla juda holdan toygan edi, ko‘zlari uyqusirardi. Ammo hayoli o‘zining qizil mashinasida edi. Chunki bir haftadan beri kamazini rosa sog‘ingan edi. Uyga kirar kirmas onasi bolani o‘rniga yotqizibdi. Izzatilla ham darrov uxlab qolibdi.

Ertasi kuni ertalab uyg‘onganida uning hayoliga birinchi bo‘lib kamaz mashinasi kelibdi. Lekin uni qayerga qo‘yganini eslay olmabdi. U hamma joyni izlabdi, ammo hech qayerdan topa olmabdi.

Borib onasidan so‘rabdi:

- Oyijon, kamazimni ko‘rmadingizmi?
- Yo‘q, o‘g‘lim. Yaxshilab qara, shu atrofdadir, – debdi onasi.

Izzatilla to‘satdan mashinasini bog‘da qoldirganini eslab qolibdi.

- Esimga tushdi! Bog‘ning bir chekkasiga uloqtirgandim, – deb hovliga yuguribdi.

Bog‘dan uning baland ovozi eshilibdi:

- Oyi, oyijon! Bu yerga tezroq keling!

Onasi shoshib hovliga yuguribdi. Nimani ko'ribdi deng? Bir qush kamaz mashinasiga ortilgan tuproq ustiga in qurib olgandi. Qush uya chetida qo'rquv bilan Izzatilla va uning onasiga qarab turardi.

– Yaxshisi, uning oldiga bormaylik. Tag'in qo'rqib ketmasin. U qaldirg'och, bu yerda tuxum bosib yotibdi. Kamazingni keyinroq olarsan, – debdi onasi.

– Uyasini boshqa joyga olib qo'yaylik, – deb betoqatlanibdi bola. Chunki u mashinasini tezroq o'ynashni xohlardi.

– Yo'q! Uyasiga tegolmaymiz, chunki bu yerda qaldirg'ochning tuxumlari bor. U yaqinda bola ochadi, – debdi onasi.

Bu xabarni eshitib, Izzatilla xursand bo'lib ketibdi. U kulib:

– Unday bo'lsa, ularni endi men qo'riqlayman. Uyaga hech kim yaqinlashmasligi uchun uni poylab turaman, – debdi.

Ko'p o'tmay polaponlar dunyoga kelishibdi. Izzatilla ularni parvarishlabdi.

Qish kelganda qaldirg'ochlar issiq o'lkalarga uchib ketishibdi. Har yili yozda ular bolakayni ko'rgani kelishar ekan. Ular Izzatillaning yaxshiligini aslo unutishmabdi.

KICHIK XONQIZI

Katta o‘rmonda kichkina, dumaloq xonqizi qo‘ng‘izi onasi bilan yashar ekan.

O‘sha kuni tongda uyg‘onganida xonqizi juda xursand edi. Chunki havo iliq va quyoshli edi. Buning ustiga gullarning ajib ifori butun o‘rmonga taralgan edi. Xonqizi darrov onasining oldiga yuguribdi.

– Onajon, bugun havo juda chiroyli ekan. Biroz shu atrofda aylanib kelsam, maylimi? – debdi.

– Mayli, ammo uzoqqa ketma, keragidan ortiq yema. O‘zingga ehtiyot bo‘l, kech tushmasdan orqangga qayt. Yo‘qsa, yo‘lingni topolmay qolasan, – debdi onasi.

– Siz xavotirlanmang. Aytganlaringizni yodimda tutuman, – debdi xonqizi va yo‘lga chiqibdi.

U o‘zicha xirgoyi qilib, sekin yurib ketibdi. U ancha yo‘l yurib, bir joyga kelib qolibdi. Bu yer barglar bilan to‘la ekan. Xonqizi barglarni juda yaxshi ko‘rar edi. U ishtaha bilan yaproqlarni yeya boshlabdi. Shunday ko‘p yeb qo‘yibdiki, natijada o‘zini og‘ir his qilibdi va yaproqlar orasida uxlab qolibdi.

Kech tushayotganida xonqizi uyg‘onib qolibdi. Darhol kelgan yo‘lidan orqaga qayta boshlabdi, ammo atrofga qorong‘ilik cho‘kib qolgandi. Xonqizi

o'zi kelgan yo'ldagi daraxt va gullarni topib olishga qiynalibdi. U goh u tomonga, goh bu tomonga yuribdi. Biroq uyiga ketadigan yo'lni topa olmabdi.

— Adashib qoldim! Endi nima qilaman? — deb o'ylay boshlabdi.

Xonqizi yana yurishda davom etibdi. So'ng yo'lda shilliqqurtga duch kelibdi.

— Shilliqqurt, sen uyimga qaysi yo'ldan borilishini bilmaysanmi? — deb so'rabdi.

— Men qayerdan bilay? Nega mendan so'rayapsan? — debdi shilliqqurt va sudralib ketib qolibdi.

Xonqizi yana o'z yo'lida davom etibdi. Keyin u o'rgimchakni uchratibdi. Uning oldiga borib:

— O'rgimchak, sen uyimga qanday borishni bilmaysanmi? — deb so'rabdi.

O'rgimchak jahl bilan:

— Sen bemahalda nega ko'chada yuribsan? Kun kech bo'ldi, sen esa hali kichkinasan, — deb gap boshlagan ekan, xonqizi darhol undan uzoqlashibdi.

U qorong'i o'rmonda yana bir o'zi qolibdi, nima qilishini bilmay qolibdi. Barglarga tushgan shudring uning ust-boshini ho'l qilib yuboribdi. Kichkina oyoqchalari horg'inlikdan og'riy boshlabdi. U bir maysa yoniga o'tirib: " Bundan keyin hech qachon uyimdan uzoqlashmayman," deb yig'lay boshlabdi.

Shu payt bir ovoz eshitilibdi:

✓ – Xonqizi, bu yerda nima qilyapsan? Hega yig'layapsan?

Xonqizi ovoz kelgan tomonga qarabdi va yaltiroq qurti ko'ribdi.

– Men adashib qoldim. Kun kech bo'ldi, men uyga qanday ketishni bilmayapman, – debdi.

– Xafa bo'lma. To'xta-chi, balki senga yordam bera olarman, – debdi yaltiroq qo'ng'iz.

Xonqizi ko'zlaridagi yoshni artib:

– Qanaqasiga? Sen mening uyim qayerdaligini bilasanmi? – debdi.

Yaltiroq qo'ng'iz xotirjamlik bilan:

– Uyingni bilmayman, ammo men yaltiroq qo'ng'izman. Dumimdan nur tarataman. Shu tarzda yo'lni yoritaman va uyingni topib olamiz.

Ular darhol yo'lga chiqishibdi. Yaltiroq qo'ng'iz oldinda, xonqizi orqada ancha yo'l yurishibdi. Nihoyat xonqizining uyiga yetib kelishibdi.

Shu oqshom xonqizi o'ziga yaxshi do'st orttiribdi. U yana bir bor onasining: "Ko'p yema, ehtiyot bo'l," degan nasihatining ma'nosini anglab yetibdi.

ZAHRO VA ZUHRA

Zahro va Zuhra opa-singillar ekan. Zahro besh yoshda, Zuhra esa o'n besh yoshda ekan.

Zuhra har kuni ertalab maktabga borar, tushdan keyin uyga qaytar ekan. So'ng darslarini qilar, do'stlari bilan telefonda gaplashar yoki musiqa tinglar ekan.

Zahro esa har kuni uyda qo'g'irchog'i bilan o'ynar, rasm chizar ekan. Ba'zan qo'g'irchog'iga ko'ylak tikar yoki ko'chada dugonalari bilan koptok o'ynar ekan.

Zahro ko'pincha opasi Zuhraga: "Keling, birga mehmon-mehmon o'ynaylik" der, Zuhra esa:

– Singiljonim, men mehmon-mehmon o'ynash uchun ancha katta bo'lib qoldim. Vaqtim ham yo'q, qiladigan ishlarim ko'p, – deb javob berar ekan.

Zahroga opasining o'zidan ancha yoshi katta ekanligi yoqmas ekan. U xafa bo'lgan ohangda:

– Odamning o'zidan ancha katta yoshli opasi bo'lishi qanchalar yomon, – deb qo'yar ekan.

Bir kuni Zuhra Zahroning oldiga kelibdi va:

– Bilasanmi, Zahro, ertaga onajonlar bayrami, – debdi.

– Voy, men onam uchun hech narsa olmadim-ku!
– debdi Zahro.

– Xafa bo'lma. Men ham hali sovg'a olmadim. Yur, sen bilan birga do'konga boramiz.

Ular ikkalasi birga ko'cha boshidagi katta do'konga borishibdi. Zuhra onasiga chiroyli tufli, Zahro esa onasiga ro'mol sotib olibdi.

Sotuvchi tuflini karton qutiga solibdi. Shunda Zahro:

– Mana buni ham chiroyli qilib o'rab bering, – debdi. Uning hayoliga bir fikr kelgandi.

– Iltimos, oq qog'ozga o'rang. Men u qog'ozga rasm chizaman. Onam mening rasmlarimni yaxshi ko'radi, – debdi u.

Zuhra ham kulib:

– Yaxshi fikr, sovg'a yanada chiroyli bo'ladi, – debdi.

So'ng ular uyga qaytishibdi. Zahro darhol bo'yoq qalamlarini olibdi va chiroyli gul rasmini chiza boshlabdi. Endi chizayotganida to'satdan uning qo'li qaltirab ketibdi va rasm buzilibdi. U xafa bo'lib:

– Voy, rasvo bo'ldi. Endi nima qilaman? – deb yig'lab yuboribdi.

Shu payt opasi Zahroning oldiga kelibdi va rasmga qarabdi. Singlisi rasmga qarab ho'ng– ho'ng yig'lab o'tirganmish. Bo'yoq qalamlarini uning qo'lidan olib:

– Xafa bo'lma, hozir men to'g'rilab beraman, – debdi va sovg'a ustidagi qog'ozga chiroyli gul rasmini chizibdi.

Zahro quvonch bilan:

– Juda chiroyli bo'ldi! Odamning o'zidan katta opasi bo'lsa, qanday yaxshi ekan! – deb sakrab yuboribdi.

So'ng opasining yuzidan o'pib, unga minnatdorchilik bildiribdi.

MOSH QAYERDA

Kichkina Aziza chiroyli ko‘m-ko‘k daraxtlarga to‘la shaharda yashar ekan. Azizalarni uyi kichkina, ammo mevali daraxtlarga to‘la katta bog‘i bor ekan. Bu chiroyli bog‘da Mosh ismli mushuk ham yashar ekan.

Aziza har kuni Moshga ovqat berar va u bilan o‘ynar ekan.

Bir kuni Aziza bog‘ga chiqqanida Mosh ko‘rinmabdi. Qizcha u tarafga, bu tarafga yuguribdi, ammo mushukni topolmabdi.

– Mosh, mening Moshim qayerdasi deb timay chaqiribdi – Aziza.

Uning har doimgidek miyovlab oldiga kelishini kutibdi. Lekin Moshdan hech qanday darak yo‘q edi.

Oxiri qizaloq umidini uzib, ichkariga kiribdi. G‘amgin ovoz bilan onasiga:

– Oyi, mosh yo‘q, – debdi.

Bu paytda Azizaning onasi tikib o‘tirardi. Qizining ovozini eshitib, boshini ko‘taribdi.

– Nima kim yo‘q – deb so‘rabdi.

Mushuk, hovlimizdagi mushuk yo‘qolib qoldi.

Onasi kulib:

Ua ko'rgandim. Shu yerdadir, hamma joyni yaxshilab qaradingmi Yana qarab ko'r, debdi.

Oradan uch kun o'tibdi, ammo Mosh hech qayerda yo'q edi.

– Aziza o'zi bilgan hamma joyni qidiribdi, lekin topolmabdi.

– Aziza dadasi hovlidagi daraxtlarning tagini yumshatayotgan paytda uning oldiga borib, noumidlik bilan

– Dada, Moshni nega topa olmayapmiz deb so'rabdi.

– Dadasi qo'lidagi ishini qo'yib, jiddiy ohangda.

– Qachondan beri yo'q deb so'rabdi.

– Uch kundan beri.

– Dadasi kulib:

– Balki sayrga chiqqandir yoki biror do'stinikiga ketgandir. Xafa bo'lma, o'zi qaytib keladi, debdi.

Aziza xavotir bilan:

– Itlar unga ziyon yetkazsa-chi debdi.

– Yo'q, Azizam. Men bilgan Mosh juda hushyor, qo'rqma, deb qiziga tasalli beribdi.

Qizcha boshqa hech narsa demabdi va xomush bo'lib o'tiraveribdi.

Birozdan keyin dadasi:

– Qizim, xafa bo'lma, albatta, qaytib keladi. Sen borib omborxonadan menga teshani olib kelib ber, – debdi.

√ Aziza oʻrnidan turib, omborxonaga ketibdi. Oʻziga oʻzi.
Bechora Mosh, shu paytgacha hech qayerga
ketmaganding. Boshingga falokat tushmadimikan
deydi.

Qizaloq shularni gapirib, omborxonada eshigidan
kirayotganida toʻsatdan miyovlagan ovoz
eshitilibdi. U shoshib atrofiga qarabdi. Nimani
koʻribdi deng Mosh omborxonada burchagida
oʻtirganmish! Qiz uning oldiga yugurib boribdi.

– Voy, moshginam, sen shu yerdamiding. Seni
qancha qidirganimni bilasanmi deb shunday
qarasa, Moshning yonida uchta mushukcha
oʻtirganmish!

Aziza sevinch bilan dadasini chaqiribdi.

– Dadajon, tezroq bu yerga keling. Mosh bolalabdi.
Mosh bolalarini yaxshi parvarishlabdi, yalab-yulqab
yuvintiribdi va ularni ehtiyot qilibdi.

Kunlar oʻtib, mushukchalar ulgʻayishibdi. Ular
bogʻda Aziza bilan quvnab oʻynashar ekan.

QURBAQA NEGA XAFA BO‘LDI?

Vaqildoq kichkina yashil qurbaqa ekan. U kunlarini daryo qirg‘og‘ida o‘yin o‘ynab, vaqillab yoki uxlab o‘tkazar ekan. Daryo yaqinidagi qizil uyda esa Fotima ismli kichkina qizaloq va oilasi yashar ekan. Fotima va Vaqildoq do‘st ekan.

Havo ochiq va quyoshli bo‘lganda Fotima daryo qirg‘og‘iga kelar, maysalar ustida o‘tirar va baland ovozda:

– Vaqildoq, qayerdasan? Menga o‘zingni ko‘rsat, – der ekan.

Vaqildoq bu ovozni eshitib, Fotimaning qo‘liga sakrab chiqar ekan. Ba‘zan ular birgalikda sakrab o‘ynashar ekan. Kech tushganda Fotima:

– Ertaga ko‘rishamiz, – deb uyiga ketar ekan.

Havo ochiq bo‘lgan kunlarda qurbaqa qirg‘oqdagi o‘t ustiga o‘tirib, Fotimani kutar ekan.

Kunlar o‘tibdi. Bir kuni Vaqildoq uzoqdan Fotimaning ovozini eshitibdi. Oldimga keladi deb kutib o‘tiribdi.

Fotima nariroqda maymunjon terardi. Uning yonida qurbaqa tanimaydigan ikkita qizcha ham bor

~~edi~~ Vaqildoq unga o'zini sezdirish uchun avval ovoz beribdi. Ammo uni hech kim eshitmabdi. Keyin u sakrab-sakrab qizlarning oldiga boribdi. Lekin qizchalar u yoqdan bu yoqqa yugurishayotganlari uchun qurbaqani ko'rishmabdi. Saldan keyin ular boshqa joyga ketib qolishibdi.

Vaqildoq juda xafa bo'libdi. Borib bir daraxtning tagiga o'tiribdi. G'amgin ovozda vaqillay boshlabdi. Shu daraxtda tilla qo'ng'iz ham o'tirgan edi. U qurbaqaning ovozini eshitib qolibdi.

— Hoy qurbaqa, senga nima bo'ldi? Har doimgidek vaqillamayapsan? — deb so'rabdi.

— Bugun Fotima daryo qirg'og'ida edi, lekin mening yonimga kelmadi. Men unga nima qildim? Mendan xafa bo'ldimikan? Yoki endi men bilan do'st bo'lishni xohlamaydimi? — debdi qurbaqa.

— Balki biror ishi bordir. Darrov xafa bo'lma, — debdi tilla qo'ng'iz.

— Yo'q, ishi yo'q edi. O'rtoqlari bilan o'ynayotgan edi. Avvallari birga o'ynardik, umuman bunday qilmasdi. Endi men nima qilaman? — deb yig'labdi u.

— Menimcha, shoshib xulosa chiqaryapsan. Fotima yana qirg'oqqa kelganida u bilan gaplashasan.

Oradan bir necha kun o'tibdi. Bir kuni ertalab Fotima yugurib qirg'oqqa kelibdi.

✓ – Vaqildoq, vaqildoq, qayerdasan? – deb qurbaqani chaqiribdi.

Lekin qurbaqa har doimgidek Fotimaning oldiga kelmabdi.

Qizaloq yana:

– Vaqildoq shu yerdaligingni bilaman. Qani, chiqaqol, – deb baqiribdi.

Qurbaqa sakrab uzoqdagi bargning ustiga chiqibdi. Fotima unga yaqinlashib:

– Nima bo‘ldi? Mendan xafa bo‘ldingmi? – deb so‘rabdi.

Vaqildoq indamabdi.

Qizcha biroz o‘ylab:

– Ha, tushundim...kechagi gal kelganimda oldingga kelmaganim uchun mendan xafa bo‘ldingmi? O‘sha kuni amakimning qizlari kelgandi. Ular maymunjon termochi bo‘lishdi. Bilasan, ular mehmon. Nima qilishim kerak edi?

Qurbaqa Fotimadan xafa bo‘lganiga pushaymon bo‘libdi va vaqillab uning qo‘liga sakrabdi.

So‘ng ular birga o‘ynay boshlashibdi. Ularning quvnoq ovozlari uzoqdan eshitgan tilla qo‘ng‘iz ham xursand bo‘libdi.

YAXSHI DO'STLAR

Holiq yosh yigit bo'lib, u fermada yolg'iz yashardi. U har kuni dalada ishlar va fermadagi hayvonlarni parvarish qilardi. Holiqning hech kimi yo'q edi. Kechki ovqatni ham bir o'zi yer, biroz pechka oldida o'tirar, so'ng barvaqt uxlashga yotardi.

U bayram kunlari juda xafa bo'lib ketardi. Chunki bayramda hamma bir-birini ziyorat qilishga borar, katta dasturxonlar yozilar, odamlar zavq bilan suhbatlashishar edi. Lekin Holiqni ziyorat qilishga hech kim kelmas, uning ham ziyorat qiladigan odami yo'q ekan...

Yana bir bayram arafasida Holiq g'amgin bo'lib o'tirgan ekan. Shunda kurka uning oldiga kelib:

– Nima bo'ldi senga? Nega xafasan? – deb so'rabdi.

Holiq boshini qo'llari orasiga olib gapira boshlabdi:

– Yolg'iz bo'lish qanchalar qiyin ekanini bilmaysan. Senda har tomonga yugurib yuradigan jo'jalaring bor. Ota-onang, aka-ukalaring bor.

Kurka nima deyishni bilmay qolibdi. Ularni eshitib turgan sigir ma'rabdi. Xo'roz xafaligidan baland ovozda qichqiribdi. Tovuq ham pitirchilabdi. Jo'jalar

alangiab Holiqqa qarashibdi.

Ular hammalari o'yga cho'mishibdi. So'ng Holiq o'rnidan turibdi va xo'roz, tovuq, kurka, jo'jalarga don beribdi. Sigirni sog'ibdi. Ishlarini tugatgach, o'rniga kirib yotibdi.

"Koshki ota-onam yonimda bo'lsalar edi. Qani endi oilam bo'lganida edi," deb o'ylab yotganida to'satdan bir ovoz eshilibdi. Kimdir eshikni taqillatgandek bo'libdi. Holiq eshikni ochib qarasa, kurka turgan emish. U hayron bo'lib so'rabdi:

- Bu yerda nima qilyapsan?
- Men bilan yur, – debdi kurka.

Kurka oldinda, Holiq orqada molxona tomonga yurishibdi. Ular ichkariga kirganlarida hamma hayvonlar baravar:

- Bayraming muborak bo'lsin! – deyishibdi.

Fermadagi barcha hayvonlar shu yerga to'plangan edi.

Holiq tabassum bilan:

- Sizga ham muborak bo'lsin! – debdi.

Hayvonlar uni xursand qilish uchun qo'llaridan kelganча harakat qilishibdi. Xo'roz qichqirib, qo'shiq aytibdi. Sigir bo'ynidagi qo'ng'iroqni jiringlatibdi. Kurka qanotlarini yozib raqs tushibdi. Tovular ham bir oyoqlab u tomondan bu tomonga yurishibdi. Holiq ularning o'yinlariga shunday kulibdiki, xafagarchiligidan asar ham qolmabdi.

√ So'ng kurka va tovuq Holiqqa tuxumlarini sovg'a qilib olib kelibdi. Xo'roz ham eng chiroyli patini hadya qilibdi.

Holiq do'stlariga qanday qilib minnatdorchilik bildirishni bilmas edi. Endi u o'zini yolg'iz his qilmasdi.

– Men juda baxtiyorman! Dunyodagi eng yaxshi do'stlar mening do'stlarimdir, – debdi.

Holiqning ko'zlarida sevinch yoshlari ko'rinibdi.

G'AMGIN CHOYNAK

Katta choynak juda xafa ekan. Uni bozordan sotib olishganiga, Barno opanikiga keltirishganiga ikki hafta bo'lgan edi. O'sha kuni Barno opa kichik qizi Laylo bilan choynakni tozalab yarqiratishibdi. So'ngra uni oshxonadagi javonning ustiga qo'yibdi. Shundan keyin undan umuman foydalanishmabdi.

Pastda samovarning yonida kichkina eski choynak bor ekan. Kichkina choynakda faqat to'rt kishiga loyiq choy damlash mumkin ekan. Barno opanikida shu yetarli ekan. Shuning uchun har doim shu kichkina choynakdan foydalanishar ekan.

Katta choynak turgan joyidan hammasi ko'rinar ekan. Har kuni u tushkun ahvolda kichik choynak va samovarga qarab:

– Barno opaning koriga yaramayapman. Meni sotib olganida choy damlashadi deb o'ylab xursand bo'lgandim. Ammo bu yerda turish bilan do'konda turishning sira farqi yo'q. Holbuki, men olti yetti kishiga choy damlayman, – debdi.

Katta choynakning ahvoliga qarab kichkina choynak shunday debdi:

✓ – Sen yangi, yaltiroq choynaksan. Balki Barno opa seni chiroyli bo‘lganing uchun sotib olgandir. Bu oshxonaga ham juda yarashgansan, – deb unga tasalli berishga harakat qilibdi.

Katta choynakning yuragi sirqirabdi. Unda ham choy damlashlarini xohlar ekan. O‘ziga o‘zi:

– Men bezak emasman. Mening ishim choy damlash, – debdi.

Oradan bir necha kun o‘tibdi. Bir kuni ertalab Barno opa shoshib oshxonaga kiribdi va tort pishira boshlabdi. Shu paytda Layloning xolasi kelib qolibdi va Barno opaga yordam beribdi. Birga tortni pishirishibdi. Oxirida ustiga Layloning ismini yozishibdi.

Kichkina choynak:

– Tushundim! Bugun Layloning tug‘ilgan kuni. Tushdan keyin mehmonlar kelishadi. O‘tgan yili ham shunday bo‘lgandi. Hali esimda, juda zo‘r bo‘lgandi, – debdi.

Katta choynak oh chekib:

– Sizga maza! Men uchun farqli hech narsa yo‘q. Na choy damlayman, na samovar kabi suv qaynatishga yarayman. Bu yerda o‘tirishdan siqilib ketdim. Hech bo‘lmasa, men bilan gullarga suv quyishsa ham mayli edi, – debdi.

Ammo shu payt u sira kutmagan hodisa yuz beribdi. Barno opa singlisi bilan gaplashib ichkariga kiribdi.

KO‘ZOYNAKLI SHILLIQQURT

Zunzuk kichkina va chiroyli shilliqqurt ekan. U aqli ekan, ammo ko‘zi boshqa shilliqqurtlarnikidan farqli ravishda yaxshi ko‘rmas ekan.

Otasi buni bilib qolib Zunzukni shifokorga olib boribdi. Shifokor unga ko‘zoynak taqishi kerakligini aytibdi.

Shu kundan boshlab Zunzuk siqila boshlabdi. Chunki u ko‘zoynak taqishdan uyalar ekan.

– Bolajonim, ko‘zoynak taqishning uyati yo‘q. Agar oldingni ko‘rolmay yiqilib tushsang, nima qilamiz? – debdi onasi.

– O‘g‘lim, agar ko‘zoynak taqmasang, ko‘zlaring kundan kunga xiralasha boshlaydi. Ko‘rmay qolsang, nima qilamiz? – debdi otasi.

Lekin u ota-onasining gapiga kirmabdi. Doim ko‘zoynagini olib qo‘yaveribdi. Ko‘zlari ham kundan kunga yomon ko‘ra boshlabdi. Sinfda ham doskani ko‘rish uchun eng oldingi partada o‘tiribdi, lekin baribir yaxshi ko‘ra olmabdi. Yonidagi sherigidan doim:

– O‘qituvchi doskaga nima yozdi? – deb so‘rar ekan.

√ O'qituvchi esa:

– Zunzuk jim o'tir, – deb tanbeh berar ekan.

U maktabga borishda ham qiynalar ekan. Chuqurlarga tushib ketar, toshlarga urilib ketar ekan.

Bir kuni maktabdan uyga qaytayotganida yo'lning boshida bitta tosh ko'ribdi. "Shunga biroz o'tirib dam olay", debdi. Endi o'tirayotganida birdan baqirib yuboribdi. U o'tirmoqchi bo'lgani tosh emas, tipratikan ekan.

Uyga borganida o'ziga o'zi:

– Bunday davom etishi mumkin emas. Onam aytgandek, boshimga biror falokat tushmasin, – debdi va ko'zoynagini taqib olibdi.

Ammo ertasi kuni ertalab maktabga ketayotganlarida boshqa bolalar masxara qilishlarini o'ylab, darrov ko'zoynagini yechib qo'yibdi.

Shu kuni havo bulut edi. Hamma shilliqqurtlar kabi bunday ob-havo Zunzukka ham yoqar edi. Zunzuk biroz ertaroq chiqib, do'stining uyiga kirib o'tishga qaror qilibdi. U antennalarini ikki tarafga silkitib, yo'lga tushibdi. Qo'shiq kuylab ketaveribdi. Ancha yurib do'stining uyi oldida to'xtabdi. Eshikni ochibdi va baland ovozda:

– Salom, do'stim! Men Zunzukman, qayerdasan? Oldingga kiraymi? – deb baqiribdi.

So'ng asta ichkariga kiribdi. Shu payt ichkaridan begona ovoz eshitilibdi. Zunzuk juda qo'rqib ketibdi,

✓ joyidan qimirlolmay qolibdi. U o'zini qo'riga olayotganida bahaybat narsa unga qarab kela boshlabdi.

Shunda u do'stining uyiga emas, boshqa joyga kirib qolganini anglabdi. Ammo endi kech edi. U ko'zlarini ochganida o'zini qorong'i joyda ko'ribdi.

– Shilliqqurt, qo'rqma, tashqariga chiq! Men dushman emasman, do'stman, – debdi bir ovoz.

Zunzuk asta-sekin antennalarini tashqariga chiqaribdi. Nimani ko'ribdi deng? Atrofi katta-kichik chumolilarga to'la emish! Zunzukning oldida esa ko'zoynakli chumoli o'tirganmish. Chumoli shafqat bilan:

– Seni ilonning uyasiga kirayotganingda ko'rib qoldik. Naq ilonga o'lja bo'larding. Biz uni qitiqladik va seni uyimizga sudrab keldik, – debdi.

Zunzuk ham ularga ko'zi xiralashganidan beri bo'lgan voqyealarni gapirib beribdi. So'ng minnatdorchilik bildirib, uyiga ketibdi. Ota-onasiga ham boshidan kechirganlarini aytib beribdi. Shu kundan boshlab sira ko'zoynaksiz yurmaslikka so'z beribdi.

G'ALATI IT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Katta bir adirda bir qancha itlar birga yashashar ekan. Bu itlarning ranglari turlicha ekan. Biri qora, bir oq, biri jigarrang ekan. Bir kuni bu yerga olachi por it kelibdi. Itlar uni uzoqdan ko'rib hayron bo'lib qolishibdi.

Qora it:

- Voy, bu qanaqa it? Nega uning terisi olachi por?
- deb vovillabdi.

Boshqasi:

- Men bunaqa itni ko'rmagandim. Menimcha u kasal bo'lsa kerak, – debdi.

Boshqalari ham:

- Ha, terisi dog' bilan to'la, – deb boshlarini silkishibdi.

Olachi por it aytilganlaridan bexabar ularning oldiga kelibdi. Ular bilan tanishib, do'st bo'lishni xohlabdi. Lekin itlar birdan vovillab yuborishibdi.

Olachi por it qo'rqib:

- Nega bunday qilyapsizlar? – debdi.
- Tez bu yerdan ket! Bizdan nari yur! Bizga kasaling yuqadi, – deb akillabdi qora it.

Olachi por it hayron bo'lib:

- Kasallik? Qanaqa kasallik?

~~Feringdagi dog'larni qara! Bu dog'larni bizga ham~~ yuqtirmoqchimisan? Tez bu yerdan ket! – deb baqiribdi jigarrang it.

Keyin hammalari baravar vovillay boshlashibdi. Bechora olachipor it noiloj ulardan uzoqlashibdi. U yolg'iz qolibdi. Har kuni uzoqdan itlarni kuzatar, ular bilan o'ynashni juda istar ekan. U bir necha marta o'zining kasal emasligini, terisi tabiiy shunaqa ekanini tushuntirib berish uchun ularga yaqinlashmoqchi bo'libdi. Lekin ular g'azablanib, undan uzoqlashishibdi.

Kunlar o'tibdi. Bir kuni adirga qo'ylar suruvi kelibdi. Suruvning boshida cho'pon iti ham bor edi. Suruv shu yerda o'tlar, cho'pon iti ularga ko'z quloq bo'lib turar edi.

Cho'pon iti birdan g'amgin o'tirgan olachipor itni ko'rib qolibdi. U xafa bo'lib o'tirgan itga qarabdi. "Nega yolg'iz va g'amgin bo'lib o'tiribdi ekan?" deb o'ylabdi. Chunki boshqa tarafda bir talay itlar zavq bilan o'ynashardi.

Cho'pon iti olachipor itning oldigakelib:

– Nima bo'ldi? Nega xafasan? – deb so'rabdi.

Olachipor it hayron bo'lib unga qarabdi:

– Sen nega kelding? Mendan qo'rqmayapsanmi?

– Nega qo'rqaman? – debdi cho'pon iti.

Shunda olachipor it unga bo'lib o'tgan voqealarni gapirib beribdi.

Cho'pon iti:



– Men ancha oldin bir qishloqda senga o'xshaydigan it ko'rgandim. Qo'rqadigan joyi yo'q edi. Hamma itlarning terisi bir xil bo'lmaydi. Yaxshisi, sen bu yerda suruvni qo'riqlab tur. Men borib ular bilan gaplashaman, – deb itlarning oldiga ketibdi.

Olachipor it suruvni poylab turganidacho'pon iti borib ularga hamma itlarning terisi bir-biridan farqli ekanini tushuntiribdi.

– Kim bilsin, dunyoda biz bilmagan yana qanday itlar bor ekan...

Shunda oq it:

– Unda biz ham faqat olachipor itlar orasigatushib qolsak, bizni ular kasal deb o'ylashar ekan-da.

-Ha, bu juda yomon bo'lardi, – debdi qora it.

So'ngra u oq itga yuzlanib:

– Hatto faqat qora itlar yashaydigan joyda sening ham it ekanliginga biz ham ishonmasdik, – deb qo'shimcha qilibdi.

Qora it:

– Ha, noto'g'ri ish qilibmiz, – debdi.

Oraga jimjitlik cho'kibdi. Ular xatolarini anglashibdi va juda uyalishibdi.

So'ng yugurib olachiporning oldiga borishibdi va undan uzr so'rashibdi. U itlarning uzrini qabul qilibdi. Olachipor it endi juda baxtiyor ekan. Shu kundan boshlab ular birga yayrab o'ynashibdi.